

YOSHLAR KOMISSIYALARI FAOLIYATINING TASHKILIY-XUQUQIY
MASALALARI

Asqarov Axbor G'ayratovich

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi**o'quv ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari*

Annotatsiya: *Maqolada yoshlar komissiyalari faoliyatining tashkiliy-xuquqiy masalalari va qonunosti hujjatlar haqida keng ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *komissiya, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jins, jamoat, huquqbuzarlik.*

O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 2-son, 80-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 102-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2008 y., 52-son, 513-modda) Davlat xalq manfaatlarini ko'zlab, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga asoslanib, respublika yoshlarining ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va qoidalari Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlarini yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi: millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish; yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish; milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi; yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlay olishlariga kafolat berish; jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi; huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi. 2-modda. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari Yoshlarga oid davlat siyosati sohasida O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga quyidagilar kiradi: respublika hududida yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarni belgilash; yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta'minlash; yoshlarga oid davlat siyosati boshqaruv idoralarini tuzish; yoshlarga oid davlat siyosati sohasida respublika kompleks va aniq maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni tasarruf etish; respublika yoshlarining manfaatlarini

O'zbekistonning respublikalararo va xalqaro majburiyatlari doirasida ifodalash; respublika hududida yoshlarning va ular birlashmalarining ijtimoiy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish; respublika yoshlarining, yoshlar jamoat uyushmalarining tashabbuslarini iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash; hamma huquq sub'ektlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlarida yoshlarga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishlarini nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirishning boshqa masalalari. 3-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatini mustaqil ravishda belgilaydi va amalga oshiradi, ushbu Qonun 2-moddasining ettinchi xatboshisi bundan mustasnodir. 4-modda. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunlar Yoshlarga oid davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va yoshlarning manfaatlariga daxldor bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda o'zga munosabatlarni tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Qonun orqali 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga taalluqli yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy negizini belgilab beradi va uni tegishli qonunlarni rivojlantirish hamda tizimga solish uchun asos deb e'tirof etadi. Agarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida mazkur Qonundagidan va O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi. 5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatning sub'ektlari O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, yoshlar nomidan ularning jamoat birlashmalari yoshlarga oid davlat siyosatining sub'ektlaridir.

2.YOSHLARNI HUQUQIY VA IJTIMOY MUHOFAZA QILISH

6-modda. Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish va uni ta'minlash Yosh fuqarolarni huquqiy muhofaza qilish davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar va korxonalarining yoshlarga nisbatan huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan vazifalarini, shaxsning qadr-qimmatini oilada, mehnat va o'quv jamoasida, turar joyda har tomonlama himoya qilishni o'z ichiga oladi. Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakillik, ijroiya, sud hokimiyati idoralari, shuningdek huquq-tartibotni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining yosh fuqarolari Konstitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklardan to'liq foydalanadilar. Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ularning yoshiga qarab qandaydir bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishga yo'l qo'yilmaydi va bunday xatti-harakatlar amaldagi qonunlarga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning muomala layoqati masalalari, yosh fuqarolar ayrim toifalarining (nogironlar, uy bekalari, bolalar uyida tarbiyalanayotgan hamda tarbiyalanib chiqqanlarning va hokazo) huquqlarini himoya qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solib turiladi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etiladi. 7-modda. Voyaga yetmagan huquqbuzarliklarning huquqlarini muhofaza qilish Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy tarbiyaviy ta'sir chora-tadbirlarini qo'llash, shu jumladan: yetkazilgan aziyat g'uborini ko'tarish majburiyatini yuklash, jarima

solish, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, axloq-tuzatish ishlariga yuborish, hibsga olish, ozodlikdan mahrum etish, ularni maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish faqat sudning hukmiga yoki tegishli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Oldingi tahrirga qarang.

Davlat shaxsning huquqlariga rioya etilishini va uning qadr-qimmati hurmat qilinishini, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar ancha insonparvar rejimda saqlanishini kafolatlaydi, ozodlikdan mahrum qilish joylarida ularning ahvolini xalq deputatlari Kengashlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi uchun shart-sharoit yaratadi. Voyaga yetmagan huquqbuzarlik uchun sodir etgan jinoyatlarning og'irlik darajasi va ularning yoshini hisobga olib, ozodlikdan mahrum qilish joylarida tabaqalashtirilgan rejimda saqlash nazarda tutiladi. (7-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda 714-II-son Qonuni tahririda-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 51-son, 514-modda) 8-modda. Yoshlarning ta'lim sohasidagi huquqlari O'quvchilar va talabalarining o'quv-tarbiya muassasalari ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlardagi huquq va burchlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, shuningdek tegishli muassasalar o'zini o'zi boshqarish idoralari qororlarida belgilanadi. O'quvchilar, talabalar yoki ularning qonuniy vakillari o'quv yurtlarining ma'muriyati bilan tegishli qoidalar, shartnoma (bitimlar) ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6017-son. - : 2020
2. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori. - : 2021